

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori

B. T. Daminov

2022 yil

m.o’.



PROFILAKTIK PEDIATRIYA

MODULI DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910 000	- Cog'liqni saqlash
Mutaxassislik:	70910301	- Pediatriya

Toshkent – 2022

Tuzuvchilar:

- Axmedova D.I. - Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 2-Gospital pediatriya noan'anaviy davolash asoslari" kafedrasini mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori
- Axmedova N.R. - Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 2-Gospital pediatriya noan'anaviy davolash asoslari" kafedrasini assistenti, tibbiyot fanlari doktori

Taqrizchilar:

- Axmedova I.M. – TXKMRRM Pediatriya va bolalar ovqatlanishi kafedrasini mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori
- SHomansurova E.A. – ToshPTI Ambulator tibbiyot va jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti MUK yigilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya berilgan. (2022 yil “_24_” avgust “_1_” – sonli bayonnoma).

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2022 yil “_31_” avgust “__314__” – sonli buyruq 3- ilova).

1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni muxofaza qilish Sog'liqni saqlash vazirligining ustuvor yunalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan barcha islohatlar bolalar sog'ligini saqlash va go'daklar o'limini kamaytirishga qaratilgan. Bunda profilaktik pediatriya, bolalar va o'smirlarda uchraydigan kasalliklarni, xamda ularning salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar, oila va umuman jamoatni ekologiyasini o'rganishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu borada yuqori malakali pediatr mutaxassislarini tayyorlash xam juda muxim o'rinni egallab kelmokda.

Profilaktik pediatriya fani fani magistraturaning Pediatriya mutaxassisligiga taalluqli. Profilaktik pediatriya modulini o'rganish mobaynida magistratura talabasi sog'lom bolalarni yoshiga bog'liq xolda nafas yo'llari, yurak-kon tomir tizimi, oshqozon-ichak trakti, siydik yullarini rivojlanish davrlarini va anatomo-fiziologik xususiyatlari o'rganadilar. Sog'lom bolalarning asosiy rivojlanish bosqichlari, jismoniy va asab-ruhiy rivojlanishini qonun - qoidalari, sog'lom bolaning ovqatlanishi, chiniqtirish va gigiyenik tarbiyalash asoslari, o'tkaziladigan profilaktik ishlarni tashkiliy asoslari, immunizatsiya qilish, rivojlanishdagi va ruhiy-somatik buzilishlari, zararli odatlarni profilaktikasi, bolalar va o'smirlarda emotsional va xulqiy buzilishlarni umumiy va maxsus ruhiy davolash usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi bo'yicha bilim xosil qiladilar. Fanni o'zlashtirish uchun ta'limning oldingi bosqichlaridagi Bolalar kasalliklari propedevtikasi, Fakul'tet pediatriya, Gospital pediatriya va Ambulator tibbiyot fanlarini o'rganish mobaynida shakllangan bilim, ko'nikma va faoliyat turlari kerak bo'ladi.

Bo'lg'usi pediatr mutaxassisiga ushbu modul dasturi sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'inida klinik jixatdan tashxislash, yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsata olish hamda doimiy davolash va profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish uchun zamin yaratib beradi.

2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi - pediatr amaliyotida ishlatiladigan asosiy atamalarni, poliklinikada va somatik statsionarda qo'llaniladigan asosiy buyruqlarni, sog'lom bolalarda o'tkaziladigan profilaktik ishlar, ovqatlanish, chiniqtirish, gigiyenik tarbiyani asoslarni tashkil kilish usullarini, jismoniy va asab-ruhiy rivojlanishni baxolash usullarini, profilaktik emlash kalendari, emlashga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni, bolaning psixosomatik rivojlanish darajasini va umumiy holatini baxolashni, tashxis majmuasini amalga oshirishni, bolalar va o'smirlarni rivojlanishi buzilishlarining oilaviy va ijtimoiy sabablarni aniqlash, shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va ruhiy profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishni

bilishi va ulardan foydalana olishi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

2. Modulning vazifalari:

- deontologiya va etika tamoyillarini talabalar ongiga singdirish;
- erta davrdagi bolalarni dispanser nazoratini tashkillashtirish;
- maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni dispanser nazoratini tashkillashtirish;
- sog'lom bolani jismoniy va asab-ruhiy rivojlanishini baholash;
- har-xil yoshdagi bolalarni ovqatlanishini tashkil qilish;
- rivojlanishdagi buzilishlarni erta aniqlash, korreksiya usullarini qo'llash va oldini olish;
- bolalarni ko'rikdan o'tkazish;
- sog'lom bolalar va o'smirlarning ota-onasi bilan ishlashni;
- davolash muassasalaridagi tizimni o'rgatish;
- bemorlarni qabul qilish qoidalarini o'rgatish;
- bolalarni statsionar davolash tizimida parvarish qilishni o'rgatish;
- kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal yetishga qodir bo'lgan pediatr professional salohiyatini shakllantiradigan keng va chuqur fundamental tibbiy bilimlar xajmini shakllantirish;
- pediatriya mutaxassisligi murakkab patologiyasini yaxshi biladigan, tegishli modullardan chuqur bilimga ega bo'lgan, klinik fikrlashga qodir pediatrning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish;
- pediatriya mutaxassisligi bo'yicha yangi texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;
- turli xil tibbiy yordamni, shu jumladan favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatishni amalga oshiradigan mustaqil tibbiy yordam ko'rsatish va diagnostika faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan mutaxassisni tayyorlash, bemorlar hayotining barcha davrlarida profilaktika va rehabilitatsiya choralarni amalga oshirish;
- ko'nikmalari va tibbiy muolajalarni o'zlashtirgan, shu jumladan, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishga qodir pediatr mutaxassisini tayyorlash;
- sog'liqni saqlash, sug'urta, tibbiyot psixologiyasini tashkil qilish va iqtisod qilishda shifokorga mustaqil fikrlash imkonini beradigan umumiy va maxsus bilimlar, ko'nikmalar tizimini shakllantirish va takomillashtirish;
- bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari to'g'risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish.

2.3. Modul bo'yicha magistratura talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Magistratura talabasi:

- pediatriya fanining rivojlanishi;
- bola organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlarini ahamiyati;
- premorbid oldi fon xolatlarini;
- respublikada bolalar kasalliklarni tashxislash va davolash xizmatini tashkil qilishni;
- tibbiyot xodimlari va bemorning qarindoshlari bilan muloqotni etik va deontologik asoslarini;
- tashxislash usullari asoslarini ahamiyati;
- bemor bolani tekshirish usullari xususiyalarini;
- bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini;
- eng ko'p tarqalgan kasalliklari erta aniqlash va davolash to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- mustaqil ravishda o'quv, ilmiy adabiyot bilan ishlash;
- bolalar kasalliklarning asosiy diagnostik belgilarini aniqlash;
- kasalliklari nuqtai nazaridan kerakli tekshirish rejasini tuzish;
- pul'monologik bemor bolalardagi funksional va laborator tekshirish usullarining o'tkazilishini;
- spetsifik tekshirishga pul'monologga yuborish ko'rsatmalarni aniqlash;
- laborator va instrumental tekshirish natijalarini taxlil qilish;
- bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxislashni;
- asosiy, yo'ldosh kasalliklarni va asoratlarni e'tiborga olgan holda davolash ;
- bola organizmidagi shoshilinch xolatda asoratlarni e'tiborga olgan holda davolash;
- tibbiy xujjatlarni yuritish asoslari haqida **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- mustaqil ravishda anamnez yigish;
- bemor bolani ob'yektiv tekshirish usullarini;
- klinik (umumiy qon, peshob, balg'am) tahlili, biokimyo va immunologik taxlillarni interpretatsiyasi;
- bolalarda laborator, funksional va instrumental tekshirish usullari (EKG, ExoKG, rentgengografiya, MSKT, spiroografiya, FVD, pikfloumetriya, pnevmotaxometriya, farmakologik va funksional sinamalar) interpretatsiyasi;
- ingalyatordan foydalanish texnikasi;
- shoshilinch xolatda asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini aniqlashni, xamda o'xshash sindromlarni qiyosiy tashxislashni, asoratlarni e'tiborga olgan holda shoshilinch davolash, birinchi yordam ko'rsatish kabi **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fanda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Profilaktik pediatriya modul dasturi bo'yicha mashg'ulotlar I semestrda olib boriladi. Mashg'ulotlar 50% nazariy (seminar, doira suxbati) va 50% amaliy qism (tematik bemorlar ko'rigi)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

1-mavzu. Sog'lom bola. Bolaning rivojlanishini asosiy bosqichlari. Xomila ichi davri. CHaqoloqlik davri. Go'daklik davri. Erta yosh xususiyatlari. Maktabgacha bo'lgan davr. Kichik maktab yoshi davri. Katta maktab yoshi davri.

2-mavzu. Bolaning rivojlanishini shakllantiruvchi genetik, ijtimoiy, biologik omillarni ahamiyati. Bolaning me'yoriy rivojlanishini ta'minlaydigan tashkiy muxit omillari. Konstitutsiya va moslashishni biologik va ijtimoiy omillari.

3-mavzu. Bolalarning teri-tanosil, limfatik, suyak mushak, nafas tizimlari, qon va qon xosil qiluvchi a'zolari anatomo-fiziologik xususiyatlari.

4-mavzu. Bolalarning yurak-qon tomir, xazm qilish, siydik chiqarish, jinsiy, immun tizimlari va a'zolari anatomo-fiziologik xususiyatlari.

5-mavzu. Bolalarni jismoniy rivojlanishini qonun-qoidalar va uni baxolash usullari. 5 yoshgacha bulgan bolalarning o'sish va rivojlanishi. Bolalarni motor va ruhiy rivojlanishini baxolash

6-mavzu. Katta yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishini baxolash. Balog'atlik davri. Qiz va o'g'il bolalarni rivojlanish xususiyatlari

7-mavzu. Bolalarni ovqatlantirish tamoyillari. Ko'krak suti bilan boqish. Qo'shimcha ovqat kiritish koidalari. 2 yoshdan katta bo'lgan bolalarni ovqatlantirish.

8-mavzu. Sog'lom bolalarni chiniqtirish, gigiyenik tarbiyani asoslarni tashkil qilish usullari.

9-mavzu. Sog'lom bolalarda o'tkaziladigan profilaktik ishlarni tashkiliy asoslari; bolalarni immunizatsiyasi. Profilaktik emlash kalendari, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. Immunizatsiyaning monitoring sistemalari. «Vaksina va immunizatsiya yordamida kasalliklarni oldini olish» programmasi.

10-mavzu. Erta davrdagi bolalarni dispanser nazoratini tashkillashtirish, maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni dispanser nazorati.

11-mavzu. Bolaning asosiy tekshirish usullarini. Klinik tekshiruv usullari, ularni baxolash.

12-mavzu. Bolaning tekshirish asosiy usullari. Laborator, funksional va instrumental tekshiruv usullari, ularning interpretatsiyasi.

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada va mavzuga tegishli klinikaning bo'limida bir guruhga pedagog tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotning nazariy qismi o'tkazish jihozlangan xonada, stol, stullar, doska, komp'yuter, mul'timedia qurilmalari, flipchart doskasi, markerlar yordamida o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mavzuga oid negatoskop, sfigmomanometr, fonendoskop, speyser, ingalyator, pikfloumetrlar kerak bo'ladi. Modullar bo'yicha tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, o'rgatuvchi fil'mlar, slaydlar, nazorat savollari, qo'shimcha adabiyotlar elektron nusxada saqlanadi.

Mashg'ulotning amaliy qismi klinika bo'limlarida tematik bemorlar namoyish qilish, laborator va instrumental ko'rsatkichlarini taxlil qilish xamda kerakli xujjatlari to'ldirishdan iborat bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodiy jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida magistratura talabalari quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

1. Bemorlarni ob'yektiv tekshirish usullari (ko'rik, pal'patsiya, perkussiya, auskul'tatsiya);
2. Bemorlardan kasalligi xaqida shikoyat va anamnezlarini (akusherlik, xayotiy anamnez, kasallik anamnezi) yig'ish;
3. Qon ketishni vaqtinchalik to'xtatish;
4. Bakteriologik tekshirish uchun qon namunalarini olish;
5. Nafas olish sonini, qon bosimini, pul'sni o'lchash;
6. Immunologik holat ma'lumotlarining talqini;
7. Allergologiya ma'lumotlarining talqini;
8. Zarur tashxislash laborator va instrumental usullarini to'g'ri tanlash;

9. Qon va siydikning klinik tahlilini talqin qilish;
10. Nafas olish tizimining spirometriya tekshirishini bajarish va talkin etish;
11. Elektrokardiografik tadqiqotlar o'tkazish va EKGni sharhlash;
12. Provokatsion sinamalar o'tkazish va natijalarini izohlash;
13. Bronxodilatorlar bilan sinamalarni o'tkazish natijalarini izohlash;
14. Pikfluometr yordamida bronxlar o'tkazuvchanligini monitoringi;
15. 6 -daqiqalik yurish sinovini o'tkazish va taxlil qilish;
16. Ko'krak qafasining rentgenologik tekshiruv natijalarini sharhlash;
17. Kompyuter va magnit rezonans tomografiya natijalarini sharhlash;
18. O'smir yoshidagi bolalarda tamakiga tobelik darajasi va chekuvchini indeksini hisoblash;
19. Antrometrik ko'rsatkichlarni baholash va muammolarni aniqlash;
20. Oqsil-energetik yetishmovchiligi darajasini aniqlash va korreksiya usullarini ko'llash;
21. Bolalarni to'g'ri ovqatlanishi bo'yicha maslaxat olib borish;
22. Sun'iy nafas olishni o'tkazish;
23. Bilvosita yurak massajini o'tkazish;
24. Traxeostomiyani o'tkazish;
25. Plevral punksiyani o'tkazish;
26. Nebulayzer terapiyasini o'tkazish;
27. Kislородli qurilmalar bilan ishlash, uzoq muddatli kam oqimli oksigenoterapiya usuli;
28. Nafas tizimi kasalliklarida davolash algoritmi usullarini bilish;
29. Individual salomatlikni baholash;
30. Biologik salomatlikni baholashning integral usullarini bilish;
31. Anti-stress dasturlarini tuzish;
32. Notiklik san'atini egallash va uni hayotga tadbiiq qilish;
33. Individual sog'lomlashtirish dasturlarini amalga oshirish;
34. Ilmiy jurnallarda va Internetda ma'lumotni izlash, dalillarga asoslangan tibbiyot metodologiyasidan foydalangan holda, ularni ilmiy va amaliy faoliyatda tanqidiy baholash;
35. Mantu va Diaskin testi natijalarini baholash;
36. G-Expert, HAIN test natijalarini talqin qilish;
37. Allergologik testlarini o'tkazish va talqin qilish;
38. Xolter monitoringi natijalarini talqin qilish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

¹ УК- умумий компетенция

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1². Pediatrning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Pediatrning muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Magistratura talabasining amaliyoti ixtisoslashtirilgan muassasalarning bo'limlarida va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofil'mlar orqali namoish etiladi, algoritm asosida bosqichma-

² UKK – умумий касбий компетенция

bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Magistratura talabasi amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, klinik ordinatorlar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida keyin umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam algoritmi va videofil'mi, o'kuv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda nazorat pedagog tomonidan amalga oshiriladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Magistratura talabasi, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa rezidentlarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalarga ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan rezidentning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darsigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

Urganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarihlari va ambulator kartalar va x.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa rezidentlar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan rezidentning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

3.Xulosa. Bu bosqichda pedagog magistratura talabasi tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'lla olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb xisoblanadi.

Magistratura talabasi bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib ximoya qilganda baxolanadi.

Mashg'ulot so'nggida pedagog har bir magistratura talabasi amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Magistratura talabasi amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya

etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Magistratura talabasi barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda mutaxassislikni o'zlashtirgan hisoblanadi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

1. Pediatriyaning dolzarb muammolari.
2. Bolalarda ovqat allergiyasini profilaktikasi.
3. Bolalarda suyak sistemasi va mineral almashuvini xususiyatlari.
4. Kasalliklarni tashxislash va davo - choralari bo'yicha xolatli masalalar yechish.
5. Erta yoshdagi bolalarni ovqatlantirishni zamonaviy konsepsiyasi.
6. Onaning salomatligi, xomiladorlikni va tug'rukni kechishini xomila rivojlanishi va bola salomatligiga ta'siri.
7. Bolalarda tez-tez uchraydigan shoshilinch xolatlarning tasnifi
8. Ko'krak suti forsifikatorlari. Oy kuniga yetmay tug'ilgan va kam vaznli chaqaloqlar uchun sun'iy arashmalar.
9. Surunkali patologik jarayonda moyillik tug'riduvchi konstitutsiyaviy anomaliyalar.
10. Turli kasalliklar profilaktikasida ovqatlanishni roli.
11. Sigir suti oqsiliga allergiya.
12. Turli yoshdagi bolalarda immun tizimini tuzilishi va funksiyalari xususiyatlari.
13. Immun defitsit xolatlarni diagnostikasining tamoyillari.
14. YAssi tovolik profilaktikasi

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Profilaktik pediatriya moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Profilaktik pediatriya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Magistratura talabasi mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira bilan

ishtirok etish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Profilaktik pediatriya moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan.

Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari

Profilaktik pediatriya moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda magistratura talabalariga e'lon qilinadi.

Magistratura talabalarining modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- oraliq nazorat (ON);
- yakuniy nazorat (YAN).

JORIY NAZORAT

Joriy nazoratda magistratura talabasining modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Ijtimoiy pediatriya moduli bo'yicha seminar mashg'ulotlarida mavzu bo'yicha interaktiv dokladlar tayyorlash, mavzuni og'zaki taxlil qilish, nazorat testlar, tarqatma materiallar bilan ishlash, vaziyatli masalalar yechish, tematik bemorlar kuratsiyasi, ularning laborator instrumental tekshiruv natijalarini taxlil qilish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Joriy nazoratda magistratura talabasi bilimi ta'lim modeliga asoslangan xolda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50:50). Baholashda magistratura talabasining bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Joriy nazorat uchun 12 kredit ajratiladi. Har bir mashg'ulotda barcha magistratura talabalarining bilimlari baholanadi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Modul bo'yicha magistr reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Bah o	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" – a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	5	a'lo
81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan</p>	4	yaxshi

